

QADIMGI SUG'DIY BITIKLAR VA ULARNING TAHLILI

Suyunov Faridjon Abdumalik o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

Sug'd yozuvlari namunalari Markaziy Osiyo mintaqasidan, jumladan, Afrosiyob, Panjirent, Mug' tog'i, Yerqo'rg'on, Sharqiy Turkiston, Turkmaniston, Pokiston, Mongoliya va boshqa joylardan topilgan. Bu esa, sug'd yozuvining mintaqalar bo'ylab keng tarqalganligining isbotidir.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, sug'd yozuvi dastlab mil.avv. III asrlarda paydo bo'lgan. Sug'd yozuvlari dastlab Zarafshon vohasidan topilgan kumush tangalarda uchragan. Bu tangalar mil.av. II-I asrlarga taalluqli edi. Tangalarda sug'd yozuvlari keng tarqalgan davr mil.av. I asrdan to milodiy IV asrlargacha to'g'ri keladi, deyish mumkin. II-IV asrlarga taalluqli bullalar ham topilgan bo'lib, ularda ham sug'd yozuvlari bitilgan. Bullalarning biri Kalkutta muzeyida, ikkinchisi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Sug'd yozuvlari namunalari ro'zg'or buyumlarida ham uchragan. Masalan, Uraldagi Kopchik qishlog'idan tavoq, Perm viloyatidan esa kumush ko'zacha topilgan. Ular hozirda Sankpeterburgdagi Ermitajda saqlanmoqda. 1906-yilda A.Steyn boshchiligidagi ingliz ekspeditsiyasi Sharqiy Turkistonning Dunxuan yaqinidan sug'd yozuvida yozilgan Eski xatlar matnlarini topgan. Eski xatlar to'plamida 9 ta xat joy olgan bo'lib, ular Sharqiy Turkistondagi savdo faktoriyalarida yashagan sug'dliklarning Samarqand, Dunxuan va boshqa joylardagi o'z yaqinlariga va qarindoshlariga yozgan maktublaridir. Matnlar tarixiy-filologik nuqtai nazardan tahlil qilinib, IV asrda yozilgan degan xulosaga kelingan.

1956-yilda mongol arxeologi S.Dorsuren Mongoliyaning Bugut qishlog'idagi IV-VIII asrlarga taalluqli qabrlarni kovlayotganda to'rtburchak toshga sug'd yozuvi bitilgan yodgorlikni topgan. Tosh yodgorligining balandligi 1,98 sm, eni 70 sm, qalinligi 20 sm bo'lgan.¹ Topilmaning uch tomonida sug'd tilidagi sug'd yozuvi, orqa tomonida esa braxma yozuvi yozilgan edi. Bu topilma tarixda Bugut yozuvi nomi bilan ma'lum. Bugut yozuvi epitafiya-qabr toshiga yozilgan matn bo'lib, uni Muxan xoqon(553-572 yy.) akasi Maxan tekin vafoti munosabati bilan yozdirgan. Mazkur bitik Birinchi Turk xoqonligi davriga tegishli yagona yozma yodgorlik sanaladi.

¹ "Согдийские документы с горы Муг". Выпуск II. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. Москва: «Наука», 1962 год

Sug'd yozuvi va sug'd tili Farg'ona vodiysida ham keng qo'llanilgan. Bu haqida Quvadan topilgan xumdagi birgina so'z xabar beradi.

Sug'd yozuvi va sug'd tili hududiy jihatdan Sug'diyonada keng amal qilgan. 1961-yilda M.N.Fedorov Afrosiyobning sharqiy tomonini kovlayotgan mahalda chuqurlikdan sug'd yozuvi bitilgan sopol bo'lagini topadi. Topilma V-VI asrlarga oid bo'lib, kulol ustaxona egasiga tegishli xo'jalik hujjati ekanligi aniqlangan. Sopol parchasining bo'rtib turgan tomonida 5, ichiga kirgan tomonida 6 yoki 7 qator yozuv bo'lgan. Yozuvning saqlanib qolgan qismidan hujjat kiyim-kechak, yog' va uy-ro'zg'or buyumlarining kirim-chiqimlari ro'yxati bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelingan.

1975-yilda G.V.Shishkin rahbarligidagi arxeologlar tomonidan Afrosiyobdan yog'och matn topilgan. Tayoqning uzunligi 16 sm, eni 2,5 sm. Tayoqning bo'rtgan tomonida 5 qator yozuv yozilgan. Tayoqning o'ng tomoni singan bo'lib, o'sha joy harflari shikastlangan. Shuning uchun tayoqning singan joyidagi to'rt qator yozuvlarning boshlang'ich harflari yo'q. Tayoqning singan joyi yonida teshik bo'lib, u maxsus arqon o'tkazish uchun mo'ljallangan. Arqon orqali yog'och belga bog'langan. V.A.Livshis hujjatni o'rganib, VI asrga oid deb hisoblaydi. Olim matnni o'qib, u sher sotib olish to'g'risidagi hujjat ekanligini aniqlagan.

1965-yilda arxeologlar Afrosiyobning shimoliy qismida sug'd podsholarining saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo'lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag'oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagiga sug'd tilida o'n olti satrdan iborat elchilik ishonch yorlig'i yozib qo'yilgan edi. Bu yozuvlar VII asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1947-yilda qadimgi Panjikent xarobalaridan moddiy madaniyat yodgorliklari qatorida 25 ta sug'd yozuvining namunalari topilgan. Yozuvlar sopol bo'laklarida, qovurg'a suyaklarida uchragan. 1952-yilda bu yerdan sug'd yozuvi bitilgan torozi toshi topilgan.

Sug'd yozuvlari mashqlari Turkmanistonda Gaur-Qaladan topilgan. 1974-yilda Qarshi yaqinida Yerqo'rg'ondan sug'd yozuvli bulla topilgan. Bulla loydan konussimon muhr ko'rinishida yasalgan. Unda o'lmas so'zi o'qiladi.

1979-yilda Pokistonda Hind daryosi yuqori qismida Shatial degan joyda qoya yozuvlarini topishgan. Yozuvlarning katta qismini sug'd yozuvlari tashkil qilgan. Yozuvlar xronologiyasi V-VII asrlar bilan belgilangan.

1906-1907-yillarda A.Steyn rahbarligidagi ekspedisiya Sharqiy Turkistonda Buddaning ming g'ori dan xitoy, hind yozuvlari qatorida sug'd tilidagi sug'd yozuvlarini aniqlagan. Keyinchalik bu yerda P.Pelo rahbarligida fransuz ekspedisiyasi, S.F.Oldenbug boshchiligida Rossiya ekspedisiyasi ish olib bordi. Tadqiqotlar natijasida sug'd matnlari kolleksiyasi paydo bo'ldi va u hozirda Londondagi Britaniya kutubxonasida, SSSR FA Sharqshunoslik instituti Leningrad bo'limida, Turfon vohasidan topilgan sug'd yozuvlari yodgorliklari esa Berlinda saqlanmoqda.

Sug'd yozma yodgorliklari orasida 1932-1933-yillarda Panjikentdan sharqda 60 km uzoqlikda Qalai Mug'dan topilgan Mug' tog'i hujjatlari katta ahamiyat kasb etadi. Mug' tog'i sug'd arxivi xatlar, xarajatlar yozilgan hujjatlar va hisobotlar, tilxatlar, farmoyishlar, Panj hokimlarining diplomatik yozishmalaridan tashkil topgan.

1932-yil bahorida Tojikiston SSR Zahmatobod tumani Xayrabod qishlog'i aholisi Mug' qal'asi qo'rg'onining xarobalaridan to'qima savat va hujjatlarni topishgan. Hujjatlar tushunarsiz yozuvda ipak qog'oziga yozilgan bo'lgan. Bir necha oylar mobaynida hujjatlar yuqori Zarafshon qishloqlarida qo'ldan qo'lga o'tib yurgan. Hujjatlar respublika poytaxti Dushanbega olib kelingan. Bu yerda hujjatlar sug'd tilida yozilganligi aniqlangan. Hujjatlardan fotonusxa olinib, Leningradga professor A.A.Freymaniga jo'natilgan. 1933 yil dekabrda 91 ta Mug' tog'i hujjatlari Leningradga olib kelingan. A.A.Freyman hujjatlar ro'yxatini Sug'd to'plamida e'lon qilgan. Chuqur tahlildan so'ng, 76 ta hujjat aniqlangan, jumladan, 72 ta sug'd tilidagi, bitta arab, uchta xitoy va bitta turk tilidagi hujjatlar topilgan.

1934-yil A.A.Freyman topilgan hujjatlarning batafsil paleografik tasnifini yozgan. Ma'lumotlar Mug' tog'i topilmalariga bag'ishlangan maxsus Mug' tog'i sug'd hujjatlari to'plamida e'lon qilingan². Shu to'plamda hujjatlarning topilishi bilan bog'liq jarayonlar, Mug' tog'i bo'yicha arxeologik tadqiqotlarning hisoboti ham nashr qilingan. Akad. I.Yu.Krachkovskiy arab xatidagi hujjatni o'qib, uning sanasini va shu hujjat orqali Mug' tog'i qo'rg'onining buzib tashlanishi haqidagi tarixiy jarayonni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Tadqiqotlar natijasida topilgan barcha hujjatlar VII asr oxiri - VIII asrning I choragi (722 yilgacha)ga xosligi aniqlandi.

A.A.Freyman sug'd hujjatlarini mazmuniga ko'ra ikki guruhga xatlar va xo'jalik hujjatlariga ajratadi. Keyinchalik V.A.Livshis yana bir guruh hujjatlarini aniqlagan

² А.А.Фрейман. Описание рукописных документов, извлеченных из развалин здания на горе Муг в Захматабадском районе Таджикской ССР около селения Хайрабад и собранных Таджикистанской базой Академии наук СССР. – «Согдийский сборник». –Л.: Изд. АН СССР, 1934. –С.33-51.

bo'lib, bular yuridik hujjatlar edi. Hujjatlarning aksariyati Panjikent xokimi Divashtich nomi bilan bog'liq bo'lgan.

1934-yilda A.A.Freyman xo'jalik hujjatlarining ayrimlarini tarjima qilib, nashrini e'lon qilgan. U jami Mug' hujjatlarining 13 tasini chop qilgan bo'lib, ular Sug'd to'plami ning birinchi kitobiga kiritilgan.

1957-yil oxirlarida V.A.Livshits Dushanbeda A.A.Semenov va B.A.Litvinskiylar sharofati bilan charm va qog'ozga yozilgan hujjatlarning nusxasi bilan tanishgan. U 1958-yilning kuzida Osiyo xalqlari instituti Leningrad bo'limida saqlanayotgan sug'd hujjatlarning asl nusxasi bilan tanishishga muyassar bo'lgan. Hujjatlar bilan ishlash jarayonida u birinchi marta yuridik matnlarni topib ajratadi, bu hujjatlar shartnomalar edi. Yuridik hujjatlar haqida hali Sug'd to'plamida hech qanday xabar berilmagan edi. Mug' xatlari 711 va 722 yillarda Sug'ddagi va qo'shni viloyatlardagi siyosiy va harbiy holat to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan edi. Hujjatlar sug'd va shu atrofdagi ijtimoiy hayot va iqtisodiy taraqqiyot to'g'risida ma'lumot olishga ham xizmat qilgan. Tadqiqotlarning dastlabki natijalari V.A.Livshits tomonidan 1959-1960 yillarda (jami 15 ta hujjat) nashriyotda e'lon qilingan.

1962-yil Moskvada V.A.Livshits yuridik matnlar (shartnomalar va tilxatlar), xatlar, moliyaviy mazmundagi jami 45 ta hujjatni hujjatlarni Mug' togi sug'd hujjatlari to'plamining Yuridik hujjatlar va xatlar deb nomlangan ikkinchi kitobida e'lon qilgan³.

Mug' tog'i sug'd hujjatlarining foto nusxalari Rossiya F.A. Sharqshunoslik Instituti Leningrad bo'limida saqlanmoqda. Rasmlar alohida albom holatida, Eroniy tillar yozuvlari korpusi ("Corpus inscriptorum iranicarum") seriyasida nashr qilingan. Mug' tog'i sug'd hujjatlari taxminan 20 xil husnixatda yozilganligi aniqlangan. Matnlarning aniqmasligi, yomon saqlanganligi, noma'lum lahjalarda bitilganligi, o'ziga xos stilistik xususiyatlari, shaxs ismlarining ko'pligi, unvonlar va toponimik nomlarning ko'pligi sababli hujjatlarni o'qish, tarjima va tahlil qilish qiyin kechgan. Mug' tog'i Sug'd hujjatlari M.N.Bogolyubov, V.A.Livshits, O.I.Smirnova, M.Is'hoqovlar tomonidan o'rganilgan. Bir turkum sug'd hujjatlarining o'zbek tiliga tarjimasini va izohlari professor M.M.Is'hoqov tomonidan Unutilgan podsholikdan xatlar nomli risolada e'lon qilingan⁴.

³ Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица.//Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Выпуск II. Москва «Издательство Восточной литературы». 1962.

⁴ M.Ishoqov. "Unutilgan podsholikdan xatlar". Toshkent."Fan". 1992. 48 bet.

Hujjatlar Sug'd dehqoni, katta yer egasi, podshoxi Divashtich (708-722) va yirik mansabdorlar framandarning, shuningdek, Xoxsar hamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo'lib, Sug'dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotini o'rganishda muhim manba rolini o'ynaydi.

So'nggi yillardagi arxeologik izlanishlar natijasida Tojikiston Respublikasining Sug'd viloyati O'ratepa tumanidagi Shahrison qishlog'idan 2,5 km uzoqlikda ilk o'rta asr Chilxujra qo'rg'onida ikki qavatli saroy va binolar ochilgan. Qo'rg'on paxsa devordan qurilgan. Bu yerda topilmalar orasida uchta sug'd hujjati ham aniqlangan. Hujjatlar kursiv usulida siyoh bilan archa daraxti yog'ochi yuzasiga bitilgan. Yog'ochlarning ikki uchi chiqarilgan. Bu hujjat 1963-yil saroyning ikkinchi qavati yo'lagidan topilgan. 1964-yilda mehmonxona yo'lagi tozalanayotgan mahalda ko'mirga aylanib qolgan taxtacha topilgan.

Mahalliy unvonlar. Sug'd konfederasiyasida mahalliy davlat boshqaruvining butun konfederasiyada bir xilda olib olib borilganligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, konfederasiyaning barcha hukmdorliklarida xuddi Panchdagi kabi mahalliy unvonlar tizimi mavjud bo'lgan. Masalan, Sug'd konfederasiyasining Panch hukmdori saroyida xizmat qilgan framandar Avat hukmdorning xo'jalik ishlari bo'yicha yordamchisi hisoblanib, frmandar mahalliy unvon hisoblanadi. Farmondor Avatning Panchdan tashqarida ham faoliyat ko'rsatganligi ba'zi unvonlarning butun konfederasiya bo'ylab faoliyat olib borganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Mug'tog'i sug'diy hujjatlarida uchraydigan "γwyrpt-aaxvirpat, "otxona boshlig'i" ma'nosidagi ibora mahalliy unvon bo'lishi barobarida, Kesh hukmdorining unvoni sifatida tangalarda uchraydi. Darhaqiqat, Sug'd konfederasiyasining Kesh hukmdorligida VII-VIII asrlarda bosilgan tangalarning bir qanchasida "Kesh hukmdori Axurpat" jumlasini uchrasa, xitoy yilnomalarida 727-yilda Xitoyga elchi yuborgan Shi (Kesh) hukmdori Xubido (sug'd, Axurpat) ismi qayd etiladi. Bu esa axurpat mahalliy unvon bo'lishi bilan birga konfederasiyaning Kesh hukmdorligini 720-yillarda boshqargan hukmdorining unvoni ekanligidan darak beradi. Xullas, Sug'd konfederasiyasidagi "γwyrpt-aaxvirpat unvonidagi shaxs keyinchalik otxona boshliqligidan "otliqlar boshlig'i", ya'ni, qo'mondon darajasiga erishgan hamda Kesh hukmdorligini boshqargan. Bu esa axvirpat mahalliy unvondan markaziy unvon darajasigacha chiqqanligini ko'rsatadi.

Mug'tog'i sug'diy hujjatlarida aavazipat, (sug'orish bilan bog'liq ariq tozalash, hashar ishlariga mas'ul...), sug'diy hujjatida uchraydigan prdyzp'(n)-pardezbon (saroyga qarashli bog'lar, xiyobonlar ustidan nazoratchi), g'upat ("daromadlar

noziri”, boshqacha aytganda, “moliya ishlari mutassaddisi”), bozkrom (bojxona noziri), naztig’riv (“hukmdor yordamchisi”, “yordamchi”), dapirpat (“bosh kotib, devonxona boshlig’i”), parvonak krak (“hujjat to’plovchi”, “farmon yetkazuvchi”, “mukofotlarni topshirishga ma’sul”), arspan (“qishloqlar ustidan nazorat qiluvchi” yoki “haram og’asi”), (“arspanlar yordamchisi”), katiyabshauz (“qishloq oqsoqoli”), urnikam (“qonun ishlari bilan shug’ullanuvchi mansabdor”), mag’upat (“bosh kohin”), vag’npat (“ibodatxona olovini saqlovchi”) kabi mahalliy unvonlar boshqaruvida qo’llanilgan. Sug’d konfederasiyasi boshqaruvida ishlatilgan mazkur unvonlar tahlili ilk marotaba Mug’ tog’i sug’diy hujjatlarni tarjima qilgan V.A.Livshis tomonidan muomalaga kiritilgan va turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan qayta o’rganilgan. Sug’d konfederasiyasida ijtimoiy, ma’muriy tizimga xos markaziy va boshqaruv lavozimlari amalda qo’llanilgan bo’lib, davlat huquq tizimining me’yorlari shakllangan edi. Saroy xizmatchilariga davlat xazinasidan ularning lavozimiga qarab maosh belgilash tartibi va uning markazdan nazorat qilinishi masalasi ilk o’rta asrlardayoq shakllanganligi davlatchiligimiz tarixida moliya tizimi, g’aznachilikning o’ziga xos o’rin tutganligidan dalolat beradi. Xullas, Sug’d konfederasiyasi boshqaruvida qo’llanilgan unvonlar tizimi o’zining xususiyatlariga ko’ra markaziy va mahalliy ahamiyatga ega bo’lib, ularning bir qanchasi Panch boshqaruvi orqali sug’diy hujjatlarda keltirilgan. Lekin mazkur unvonlar to’g’risida faqat Panch hukmdorligi misolida ma’lumotlarning tizimli mavjud ekanligi va konfederasiya tarkibidagi qolgan hukmdorliklar unvonlar tizimiga doir ma’lumotlarning yo’qligi ushbu muammoning o’z yechimini to’la topmaganligini ko’rsatadi.

Sug’d konfederasiyasi taraqqiy eta borgan sayin boshqaruvida markazlashish jadallashdi. VII asrning o’rtalari konfederasiya hukmdorliklari Kesh atrofida birlashgan bo’lsalar, shu asr ikkinchi yarmidan boshlab barcha konfederasiya a’zolari Samarqandni konfederasiyaning markazi sifatida tan olishgan. Konfederasiya taraqqiy eta borgani sari boshqaruv takomillashtirildi. Xususan, Turk xoqonlaridan biri bo’lgan, xoqonlik boshqaruvida islohotlar o’tkazgan Tun yabg’uxoqon davrida (618-630-yillar) xoqonlikning barcha hududlarida bo’lgani kabi Sug’d konfederasiyasida ham ma’muriy boshqaruv takomillashtiriladi. Sug’dagi hukmdorliklar markazga va o’z navbatida, mulklar hukmdorliklarga konfederativ tartibda o’z sodiqliklarini bildirganlar.⁵ Ba’zi hollarda mulklarning hukmdorlikka

⁵ Алимова Д. Ретвиладзе Е. “Узбекистон давлатчилик тарихи очерклари”. Тошкент. Шарк, 2001 йил. 95 б.

yoki markazga tobelik holatini aniqlash ancha qiyinchilik tug'diradi. Yu.Yoqubovning Mug' tog'i sug'diy hujjatlariga suyanib keltirishicha, Parg'ar, Buttam (Yuqori Zarafshon) kabi qishloqlarni anchayin erkin harakat olib borganliklari va to'g'ridan-to'g'ri markaz Samarqandga itoat etmay, avval Panchga, so'ngra uning ixtiyori bilan markazga bo'ysungan deb hisoblaydi. Xuddi shunga o'xshash holatni Naxshabning Keshga tobeligi holatida ham kuzatish mumkin. Sug'd o'troq hayot tarzi hukm surgan mintaqalardan bo'lib, unda hayotiy resurslardan to'g'ri foydalanish va yer-suv egaligi mulkchiligining rivojlanishi natijasida siyosiy-hududiy va ma'muriy tizim shakllangan. Markaz va hududiy birliklar o'rtasidagi boshqaruvchi hokimiyat organlari vujudga kelgan. Bunda hukmdorlik markazi va mulklar o'rtasidagi boshqaruvchilar bo'lganligi manbalarda keltiriladi. Masalan, Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida katiyabshauz, "qishloq oqsoqoli" ma'nosini anglatadigan unvon egasi tilga olingan. Sug'dda qishloqlarning qishloq oqsoqoli tomonidan boshqarilishi avvaldan mavjud bo'lgan. Bu esa davlatchiligimiz tarixida qadimiy qishloq jamoaviy boshqaruvining o'z o'rniga ega bo'lib, Sug'd konfederasiyasi misolida uning davomiy ekanligini tasdiqlaydi. Markaziy hokimiyat va mahalliy hokimliklar o'rtasidagi munosabatlar esa yirik zamindorlar, boy savdogarlar va shaharlik aslzodalar tomonidan tuzilgan "Oqsoqollar kengashi" orqali amalga oshirilgan. "Ixshid" unvonli hukmdorlar "Oqsoqollar kengashi" fikriga tayangan holda cheklangan hokimiyatga ega bo'lgan. Har bir hukmdorlikning harbiy sarkardalari va chokarlari bo'lgan. Sug'dda mavjud davlat boshqaruv tizimining bo'linmaganligi, ya'ni, uning faqat yagona davlat organi bo'lgan "Oqsoqollar kengashi"dan iborat ekanligi bugungi konfederasiyaga qo'yilgan me'yor-qoidalariga ham mos tushadi. Hukmdor-ixshidlar "Oqsoqollar kengashi" tomonidan tayinlangan. Sug'd konfederasiyasi ustidan hukmronligini o'rnatgan davlatlarning aksariyatida ko'chmanchi madaniyat hukmron bo'lib, mazkur ko'chmanchi davlatlarda boshqaruvda demokratik omillarga nisbatan urug'-qabilaviy boshqaruv ustun bo'lgan. Masalan, Turk xoqonligi boshqaruvida urug'-qabilaviy va qarindoshlik tamoyillariga amal qilinar edi. Keyinchalik Sug'd hukmdorlari va Turk xoqonlari o'rtasidagi qarindoshlik rishtalarining bog'lanishi natijasida Sug'dda ham qarindoshlik boshqaruviga amal qilina boshlandi. Ixshidlardan keyingi boshqaruv pog'onasida yirik yer egalari bo'lgan "ozodlar"- "ozodkor", ya'ni erkin yer-mulk egalari turgan. Ushbu ma'lumotlar Sug'd konfederasiya va uning tarkibidagi hukmdorliklar uchun xos bo'lib, bularni sug'diy hujjatlar ham tasdiqlaydi. "Ozodlar" doimiy ravishda ixshidlar xizmatida bo'lib, ular soliqlardan ozod etilgan edi.

Tadqiqotchi A.Kubatin (i)xšēd (>xšēt/xšāt) ixšīd/d – ixshid unvoni asosida G’arbiy Turk xoqonligining yuqori unvonlaridan biri bo’lgan šad – shad unvoni o’zlashganligini keltiradi. Lekin shad unvonining qay tarzda va qachon xoqonlik boshqaruviga kirganligi masalasi qo’shimcha dalillarga muhtoj. Ixshid unvoni nafaqat Sug’d konfederasiyasi hukmdorlariga nisbatan, balki Farg’ona hukmdorlariga nisbatan ham ishlatilganligi o’rta asr manbalarida tilga olinadi. Sug’diy hujjatlarning V-17 raqamlisida Farg’ona hukmdorlariga nisbatan ham MLK’-’γšyδ unvoni keltirilgan. Sug’diy hujjatlarda ko’plab marotaba uchraydigan MLK’-“podsho” va MR’Y (MRY’ yozilish varianti)-“hukmdor” ma’nolaridagi ideogrammalar bir ma’noni anglatish uchun ishlatilgan.

FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Согдийские документы с горы Муг”. Выпуск II. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. Москва: «Наука», 1962 год
2. А.А.Фрейман. Опись рукописных документов, извлеченных из развалин здания на горе Муг в Захматабадском районе Таджикской ССР около селения Хайрабад и собранных Таджикистанской базой Академии наук СССР. – «Согдийский сборник». –Л.: Изд. АН СССР, 1934.
3. Юридические документы и письма. Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица.//Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Выпуск II. Москва «Издательство Восточной литературы». 1962.
4. M.Ishoqov. “Unitilgan podsholikdan xatlar”. Toshkent.”Fan”. 1992.
5. Алимова Д. Ретвиладзе Е. “Узбекистон давлатчилик тарихи очерклари”. Тошкент. Шарк, 2001 йил.
6. Xolmanova, Z. Eski o ‘zbek tiliga xos ayrim leksemalar semantikasi va lingvokulturologik xususiyatlari. O ‘ZBEKIST, 38.
7. SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. (2017). Uluslararası Türk Dünyası. 7. Michael McCarthy and Felicity O'Dell." English Idioms in Use"—Cambridge university press.—L.
8. S.R.Rashidov “Kattaqo’rg’on tumanidagi joy nomlari va urug’lar”. Journal of universal science research. ISSN (E): 2181-4570, 2023.